

# MUHAMMAD YUSUF IJODINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Sultonova Nursulu Tagay qizi**

Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani 41-maktab, o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Muhammad Yusuf ijodini boshlang'ich ta'limda o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ochib berilgan. Muhammad Yusufning ijodi milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni singdirish, o'quvchilarda adabiyotga bo'lgan qiziqishni oshirish va ularni ijodkorlikka ilhomlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada ta'lim texnologiyalarni to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llash orqali o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning ijodiy va intellektual rivojlanishiga erishish mumkinligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiyalar, ta'lim, interfaol metodlar, she'r, she'riyat, vazn, qofiya, iste'dod, zamonaviy ta'lim, adabiyot o'qitish.

**Kirish.** Ta'lim tizimini raqamlashtirish zamonaviy ilm-fan rivojiga ta'sir qiladi. Xususan kompyuter texnologiyasi rivoji va ulardan amaliyotga keng foydalanishga yo'l ochib berildi. Maktab dasturlarida ham ilmiy-tadqiqot ishlarini tajriba-sinov tariqasida o'tkazishda jarayon va hodisalarni modellashtirishda rivojlanish yaqqol sezilmoqda. Zamonaviy ilm-fanga xususiy sohalar bilan birgalikda davlat tasarrufidagi maktablar orasiga yaxshi ma'nodagi raqobat paydo bo'lmoqda. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan jahon intellektual salohiyatiga to'laqonli javob bera oladigan mutaxassislar bugun maktablarda o'z faoliyatini boshlagan. Maqsad esa bitta – ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishdan iborat.

**Tahlil va natijalar.** Maktab o'quvchilari orasida xorijlik xalqaro ustozlarga qiziqish anchagina. O'quvchi o'zi bilmagan, ko'rmagan narsasiga ko'proq qiziqqanidek, xalqaro ustozlarning kiyinishi, o'zini tutishini kuzatib boradi. Ammo bu borada bitta muammo bor, ya'ni ular faqat ingliz tili fanidan dars o'tadilar. Bugungi kun talabidan kelib chiqib, adabiyot va ona tili fanlarini ham orada bitta dars sifatida o'quvchiga o'tib berish kerak. Asosiysi, o'quvchini darsga jalb qila bilish va uning bilimni zamon talabiga mos ravishda rivojlantirish. Ushbu noan'anaviy darslarda turli gadjetlardan foydalanishga ruxsat berish ham mumkin. Bu jarayon albatta o'quvchiga internetdan to'g'ri va foydali tarzda foydalanib, vaqtini unumli o'tkazish ko'nikmasini shakllantiradi<sup>1</sup>.

Hozirgi davr o'zbek milliy adabiyotining ko'zga ko'ringan iste'dodli shoirlaridan biri Muhammad Yusufdir. U 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumani, Qovunchi qishlog'ida oddiy oilada tavallud topdi. O'rta maktabni tugatgandan so'ng respublika Rus tili va adabiyoti institutini (1978) tamomladi. 1978—1980 yillarda respublika Kitobsevarlar jamiyatida, 1980—1986 yillarda «Toshkent oqshomi» ro'znomasida, 1986—1992 yillarda esa G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyatida, hozir esa «O'zbekiston ovozi» ro'znomasida faoliyat ko'rsatmoqda. U o'nga yaqin she'riy to'plamlarning, o'nlab qo'shiqlarning muallifi sifatida keng kitobxonlar qalb kirib ulgurgan. Uning dastlabki she'rlari birinchi bor «O'zbekiston adabiyoti va

<sup>1</sup><https://cyberleninka.ru/article/n/maktab-dasturlarida-muhammad-yusufning-hayoti-va-ijodini-raqamlashtirilgan-holda-o-qitish-metodikasi/viewer>

san'ati» ro'znomasida 1976 yilda chop etilgan. Shundan so'ng «Tanish teraklar» (1985), «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudagi qiz» (1989) «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko'nglimda bir yor» (1990), «Bevafo ko'p ekan» (1991), «Erka kiyik» (1992) kabi jozibali she'riy to'plamlari nashr etildi. 1989 yilda esa «Uyqudagi qiz» nomli she'riy to'plami uchun unga respublika Yoshlar mukofoti berildi<sup>2</sup>.

Ona – Vatanni sevish, uni ardoqlash, himoya qilish insonning birinchi darajali burchi, shu bilan birgalikda uning vatanparvarlik fazilati, qalbning eng oliy tuyg'ularidan biridir. Shuning uchun ham Vatan mehri, sog'inchi undan ikki qadam uzoqlashmasdan turib qalbgga larza soladi. Vatan mehri, muqaddas ona tuproq sog'inchi o'rnini hech narsa bosa olmaydi. Muhammad Yusuf o'z she'rlarida ham xalq qo'shiqlari ohangidan muhim uslubiy vosita sifatida unumli foydalangan. Bu ham shoir asarlarining xalqona, milliy ruhini kuchaytirishga xizmat qiladi. Vatan!... Bu so'zdan ulug'roq nima bor jahonda. Uni ulug'laman shoir bormikan dunyoda?!. Yana shunisi borki, har bir ijodkor o'z qalbidagi Vatanni o'zicha kashf etadi<sup>3</sup>:

Men dunyoni nima qildim,

O'zing yorug' jahonim.

O'zim xoqon, O'zim sulton

Sen taxti Sulaymonim.

Yolg'izim, Yagonam deymi,

Topingan koshonam deymi,

O'zing mening ulug'lardan

Ulug'imsan, Vatanim...<sup>4</sup>.

Ammo, o'quvchilarda bu sifatlarni shakllantirish uchun bugungi kun o'qituvchisida ilmiy salohiyat bilan birgalikda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, zamonaviy AKT (axborot kommunikatsiya vositalari)ni qo'llay olish malakalari ham bo'lishi kerak. O'quv jarayonlarini ilmiy va metodik jihatdan mukammal tashkil etish muvaffaqiyatlar garovidir. Mashg'ulotlar turlarining an'anaviy ko'rinishlari bilan bir qatorda noan'anaviy shakllaridan ham keng foydalanish ta'lim oluvchilarning sezilarli darajada rivojlanishiga olib boradi. Olib boriladigan har bir dars o'quvchilarning yanada olg'a intilishi uchun motivatsiya bo'lib xizmat qilishi kerak. Buning uchun o'qituvchi zimmasiga auditoriyada erkin muloqot muhitini yaratish hamda dars mashg'ulotlarini samarali tashkil etish vazifalari yuklatiladi. Adabiyot darslarida Muhammad Yusuf ijodini o'rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar juda katta ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar o'quvchilarning qiziqishlarini o'stirish, ularning tushunchalarini mustahkamlash va ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar orasida interaktiv darslar, virtual maktab muassasalari, online ma'lumotlar va o'quv sinalaridan foydalanish kabi variantlar mavjud. Bu usullar orqali o'quvchilarni ko'proq qatnashishga va adabiyotning muhim tushunchalarini egallashga erishish mumkin<sup>5</sup>.

**Xulosa.** Muhammad Yusuf ijodini o'rta ta'limda o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonini samarali va qiziqarli qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu texnologiyalarni to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llash orqali o'quvchilarga milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni singdirish, ularda adabiyotga bo'lgan muhabbatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>2</sup><https://tafakkur.net/muhammad-yusuf.haqida>

<sup>3</sup><https://zenodo.org/record/6602670/files/Ta%27lim%20fidoyilari-22.05.2022%20%285%29-503-516.pdf>

<sup>4</sup><https://tafakkur.net/vatanim/muhammad-yusuf.uz>

<sup>5</sup><https://bestpublication.org/index.php/pedg/article/view/11065/11018>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktab-dasturlarida-muhammad-yusufning-hayoti-va-ijodini-raqamlashtirilgan-holda-o-qitish-metodikasi/viewer>.
2. <https://tafakkur.net/muhammad-yusuf.haqida>.
3. <https://zenodo.org/record/6602670/files/Ta%27lim%20fidoyilari-22.05.2022%20%285%29-503-516.pdf>.
4. <https://bestpublication.org/index.php/pedg/article/view/11065/11018>.
5. [www.ziyonet..uz](http://www.ziyonet..uz).